

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

TA'LIM TIZIMIDA YANGI FANLARNI VA YANGI MAVZUNI O'QITISHDA  
INTERFAOL USUL, YANGI PEDAGOGIK VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH.

*Komilova Z.X.*

*Farg'onan davlat universiteti.*

**Annotatsiya.** Dars jarayonida raqamli texnologiyalar va interfaol usullarning qo'llanilishi mashg'ulotlarga jo'shqinlik baxsh etish bilan birga talabaning bahs-munozara san'atini o'zlashtirishga, o'z fikrini boshqa kishiga bemalol erkin tarzda ayta olishga hohlagan ekstremal holatdan chiqish yo'lini topish, fikr almashish, argumentatsiya, o'z raqiblarini o'zining fikri to'g'ri ekanligiga ishontira olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning diqqat e'tiborini mustaqil bilim olishga va o'z-o'zini tarbiyalash masalalariga jalb qiladi. Ularda bilimdonlik, xushmuomalalik, notiqlik, vaqtga rioya qilish, boshqalar fikrini hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. O'quvchilar darsda o'z fikrlarini tortinmay, baralla aytishga o'rganishadi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati va analitik mushohada qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

**Kalit so'zlar:** axbopor texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlar, interfaol ta'lif metodlar, An'anaviy dars, ta'lif-tarbiya.

Ta'lif tizimida Qo'llanilayotgan texnologiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirishlariga, o'z ustida tinimsiz ishlashga, nazariy ma'lumotlarning mohiyatini to'g'ri anglay olish, materiallarni tanqidiy o'rganish, talabalarda tadqiqot ko'nikmalarini shakllanishi kabilarga olib keladi.

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lif metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lif muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lif metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lif-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lif metodlarini ma'lum maqsadlarni

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lif beruvchi tomonidan ta'lif oluvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lif oluvchilarini amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lif maqsadi, ta'lif oluvchilarining soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'lifning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lif oluvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lif jarayonining markazida ta'lif oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lif beruvchi ta'lif oluvchini faol ishtirot etishga chorlaydi. Ta'lif oluvchi butun jarayon davomida ishtirot etadi. Ta'lif oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lif samarasi yuqoriq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lif oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lif jarayoni ta'lif oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lif oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lif amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lif metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lif strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lif metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lif" va b.

## Ilmiy elektron jurnali

2. Interfaol ta'lism strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lism metodlari tarkibidan interfaol ta'lism strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lism metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lism metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lism metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lism samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo'yicha hozirgi ayrim interfaol ta'lism metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi. Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta'lism metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

**T- sxema**-bu bahs davomida javoblarni (ha/yo'q, tarafdar/ qarshi kabi) yozib borishda universal grafik vosita bo'lib xizmat qiladi. T- sxema texnologiyasi juda sodda. Muammoning mavzu doirasi aniqlangandan so'ng, quyidagi ko'rinishdagi T- sxemani tuzish kerak. Besh minutdan so'ng sxemaning chap tomonini to'ldirish lozim. Unda besh minut davomida o'quvchilar mavzuga oid nechta kategoriya o'ylab topishgan bo'lsa, shuncha kategoriya ko'rsatiladi. Keyingi besh minutda o'quvchilar sxemaning o'ng tomonini to'ldiradilar. Va nihoyat, yana besh minut mobaynida o'quvchilar o'zlarining T- sxemalarini boshqa juftlikning T- sxemasi bilan taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar.

**Venn diagrammasi**-bu ikki va uch jihatlarni hamda umumiylarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Undan foydalanish bosqichlari: -o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi; -plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi; -har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi; -qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarning har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi; -kichik guruh ichidan biror o'quvchi sheriklarining ismi-shariflari to'g'risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi; -fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi; -to'g'ri javobga uch ball qo'yiladigan bo'lsa, har bir noto'g'ri fikr uchun guruhning umumiylaridan uch ball olib tashlanadi; -eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanib ular rag'batlantiriladi; -bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto'g'rilarini o'chirib chiqiladi va natijalar e'tiborga olingan holda o'quvchilarga tabaqalashtirilgan ball qo'yiladi. Venn diagrammasi metodini barcha sinflarda bir-biriga bog'liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida ushbu metodni dasturlash darslarida qo'llash mumkinligi keltirilgan:

## Ilmiy elektron jurnali

Veer-bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlarini belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

"VEER" texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

"VEER" texnologiyasi mavzuni o'rghanishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o'rghanish jarayonida; uning asosilarini chuqur fahmlash va anglab etish;

-yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalari bo'yicha dalildan natajaga kelish.

**Sinkveyn (axborotni yig'ish)** – (frantsuzcha besh ma'nosini bildiradi) o'rghanilayotgan materialni puxta anglash uchun qo'llanadigan interfaol usullardan biri bo'lib, unda tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) yiqilgan holda turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Murakkab g'oya, sezgi va hisobotlarni birnechagini so'zlar bilan ifodalash malakasini shakllantiradi, kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Sinkveyn – mavzuga tegishli besh qatorli so'zlar to'plami:

1 - qatorda mavzu bitta so'z bo'lib, ot bilan ifodalanadi (kim?, nima?)

2 - qatorda 2 ta so'z – sifat (qanday?, qanaqa?)

3 - qatorda funktsiyani anglatuvchi uchta so'z (fe'l).

4 - qatorda 4 ta so'zdan iborat fikr (sezgi)

5 -qatorda mavzu mohiyatini takrorlaydigan, unga o'xshash 1 ta so'z yoziladi.

### «Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuquro'rghanishlariga yordam berib, talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuquro'rghanishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tassavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klaster (axborotlarni yoyish) – u ko'p variantli fikrlash, o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqealar) o'rtaida bog'lanish o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi. "Klaster" so'zi g'uncha, bog'lam ma'nosini beradi.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

- ✓ Auditoriya o'quv taxtasi o'rtafiga tayanch so'z yoki ibora yoziladi.
- ✓ Kichik guruhdagi yoki yakka tartibdagi talabalarga ushbu so'z yoki iboraga tegishli bo'lган so'zlar yoki gaplarni yozishni talab qilib, «Aqliy hujum» o'tkaziladi.

Bu metodlardan tashqari amaliy mashg'ulot darslarida pedagogik dasturiy vositalar MY TEST, HOT Potatoeslardan foydalanish yanada ham dars samaradorligini oshiradi va mustahkamlaydi. HOT Potatoes dasturida mavzuga oid krossvord, qiziqarli viktorina savollari, mosliklarni aniqlash, ketma-ketlikni to'g'rilash hamda bo'shliqlarni to'ldirish bo'limlari bilan ishlash mumkin.

MyTestx-dan foydalanish eng samarali usullaridan biri.

Dastur paketida uchta asosiy komponent mavjud:

1. Sinov muharriri - bu sinov vazifalarini rivojlantirishga imkon beradigan asosiy dastur.
2. Sinov moduli.
3. Jurnal.

Dasturiy ta'minot so'zsiz ta'lilda foydali hisoblanadi, chunki bu o'qituvchilarga o'quv materiallarini o'rganish va sinov natijalarini monitoring qilishda vaqtini tejashta imkon beradi. MyTestxpro ta'lim muassasalarida har qanday darajadagi va har qanday maqsadlarda tezkor va samarali bilimlarni tashkil etishga imkon beradi.

Vazifalar turlari:

1. yagona tanlov;
2. ko'p tanlov;
3. buyurtmani belgilash;
4. muvofiqlik;
5. bayonotlarning haqiqati yoki yolg'onligi to'g'risida ma'lumot berish;
6. raqamni (raqamlar) qo'lda kiritish;
7. matn yozadigan matn;
8. rasmdagi joyni tanlash;
9. harflarning o'rnini bosish;
10. ruxsatnomalarni to'ldirish (MyTestxpro).

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Sinovda siz har qanday turdag'i har qanday turlardan foydalanishingiz mumkin, siz faqat bitta, mumkin bo'lgan va barchasi. Javob tanlovi bilan vazifalarda (bitta, bir nechta tanlov, 10 (inklyuziv) javob variantlari uchun ishlatalishi mumkin.

- **Sinov moduli** (My Test student)
- **Muharrir sinovlari**(My Test editor)
- **Sinov jurnallari** (My Test Server).

Xulosa va takliflar.

Ma'lumki, o'qituvchilik kasbi juda mashshaqqatli kasb hisoblanadi. O'qituvchi dars berishdan oldin avvalam bor darsga tayyorgarlik ko'rib darsning berilgan vaqtidan unimli foydalanib o'zining mahoratini o'z o'quvchi talabalariga ko'rsatib o'zining fanidan ta'lim – tarbiya berishga intiladi.

Bitiruv ishini bajarish jarayonida hozirgi kundagi me'yoriy-huquqiy xujjalarni o'rganish va tahlil qilish, Oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatlarni qiyosiy taqqoslab, ertangi kun talabalarini tasavvur qilish, bugungi kundagi ta'lim beruvchilar, bilim oluvchilar va potensial ish beruvchilar orasidagi munosabatlarni o'rganish kerakligi xaqida yana bir bor tasavvur xosil qildim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu mavzuning dolzarbliги shundaki, oliy ta'limda kiberhuquq mavzusini pedagogic texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish o'quvchilarga 21-asrning texnologiyalarini taqdim etadi, ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shami, o'zaro munosabat qobiliyatlarini rivojlantiradi, qaror qabul qilishda mustaqillik va ularning ijodiy salohiyatini ochib beradi. Talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishda kiberxavfsizlik fanining kiberhuquq mavzusini o'qitish quyidagi ishlarni amalgalashiradi:

- dizayn, modellashtirish, elementar dasturlash, kiberhavsizlik, kiberhuquq bo'yicha tushuncha va ko'nikmalarni rivojlantirish;
- mantiqiy fikrlashni va dunyoqarashni rivojlantirish;
- kiberhavsizlik, kiberhuquq fanlarni o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish;
- talabalar atrofidagi dunyoga yaxlit qarashni shakllantirish;
- kiberhavsizlik, kiberhuquq asoslari bilan tanishtirish;
- muammoli vaziyatlarga ijodiy yondoshish qobiliyatini rivojlantirish;
- o'quvchilarning bilim qiziqlishi va tafakkurini rivojlantirish;
- dastlabki kiberhavsizlik, kiberhuquq ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalarni shakillantiradi.

Bu usuldan boshqa pedagogik usullar bilan uyg'unlikda foydalanish ta'lim sifati va samaradoligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan har bir zamonaviy, o'z ustida izlanuvchan, kasbiga muhabbatli muallim darslarni ta'lif olivchilarga tushunarli, qiziqarli, yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda noan'anaviy tarzda o'tishini ta'minlashi zarur.

Ma'lumki, didaktik tadqiqotlar o'qitishni dialektik jarayon sifatida o'rghanadi. Bunga ko'ra ta'lif metodlari tizimi izlanishda, o'rganishda, o'zgarishda, harakatda bo'lib, ta'lif mazmunida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni xnsobga olgan holda rivojlanib borishi hisobga olinadi. Shunga muvofiq ularni tasniflashda ham ushbu ro'y berayotgan o'zgarishlar tegishlicha aks etib boradi.

Ta'lif metodlarini tasniflashda ularning an'anaviyligi, didaktik maqsadi, bilish faoliyati xarakteri, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish xususiyatlari. O'quv-bilish faoliyatini motivastiyalash va stimullash xususiyatlari, o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish xususiyatlari kabi belgilariga asoslaniladi.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 1. Z.X.Komilova. D.B.Botirov. Informatika va axborot texnologiya fanini o'qitishda bulutli texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Ta'lif muassasalarida boshqaruv jarayoni va o'quv sifatini takomillashtirish muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Jizzax davlat pedagogika universiteti. Том 1., - 325-329.
2. 2. Z.Kh.Komilova, F.S.Nazirjonova. The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.
3. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.
4. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.
5. Z.X.Komilova. Veb sahifalar yaratishning dasturiy ta'minoti. Miasto Przyszlosci 31 (Vol. 31 (2023)), 326-329.
6. Z.Kh.Komilova, F.S.Nazirjonova. The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.
7. G.I.Yuldasheva, Z.X.Komilova. Informatika fanini o'qitish jarayonida Mobil texnologiyalardan foydalanish. Miasto Przyszlosci, 2022, Том 29, 385-387 б.
8. T.I.Tojalievich, M.M.Mavlonjonovich, U.J.Tokhtasinovich, T.A.Eraliyevich. Methods of implementation of information protection system. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, №10(6), C.1037-1040, 2022
9. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.

10. Z. X. Komilova WEB 1.0, WEB 2.0, WEB 3.0 TEXNOLOGIYALARI RIVOJLANISHINING QISQACHA TARIXI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 2023/2/17. c.-196-200.
11. Komilova, Z. X., & Nazirjonova, F. S. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.
12. Komilova, Z. X. (2023). Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti, 2(2), 234-237.
13. Xokimovna, K. Z. (2023). INTERNET ETIKASI VA INTERNETGA QARAMLIKNI OLDINI OLISH. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 130-132.
14. Xokimovna, K. Z. (2023). WEB 1.0, WEB 2.0, WEB 3.0 TEXNOLOGIYALARI RIVOJLANISHINING QISQACHA TARIXI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 196-200.
15. Xokimovna, K. Z. (2023). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING HOZIRGI JAMIYATDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 234-237.
16. Xokimovna, Xokimovna K. Z. Savodxonlikni Oshirish Jarayonida Aktan Foydalanish //Miasto Przyszlosci. – 2022. – T. 30. – C. 88-90.
17. Тожибоев, И. Т., & Комилова, З. Х. (2023). РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. *TECHnika*, (1 (10)), 18-25.
18. Shermatova X. M., Komilova Z. X. Axborot kommunikatsion texnologiyalar va ta'lif jarayonlarini modellashtirish. 228 b. – 2022.
19. Komilova Z.X. Ta'linda axborot texnologiyalari.1-qism. O'quv qo'llanma. Farg'ona. 2023.